



TRANSPORT XIZMATLARINI TASHKIL ETISHNING MOHIYATI VA UNING TURIZMDAGI AHAMIYATI

Axmatova Mohigul Ergash qizi
Buxoro davlat universiteti doktoranti

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin, milliy iqtisodiyotimizga tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Izchillik bilan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning pirovard natijasi sifatida vujudga kelayotgan yangi iqtisodiy munosabatlar xizmat ko'rsatish sohasini yanada rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda. Bugungi kunda ushbu soha ijtimoiy va xalqaro mehnat taqsimotining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, milliy iqtisodiyotni jadal su'ratlar bilan rivojlantirayotgan, aholi turmush darajasi hamda sifatini yaxshilashda yuqori samara berayotgan soha bo'lib hisoblanadi. Turizmning rivojlanish tarixi transportning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Hozirgi kunda sayyohlar butun dunyo bo'ylab harakatlanishda bir necha o'n yillar oldin duch kelishi mumkin bo'lgan transport bilan bo'g'liq muammolarga duch kelmaydi. Globallashuv yuk va yo'lovchi tashish hajmi va shaklini o'zgartirdi, xalqaro va milliy transport tizimlariga talabni oshirdi.

Transport infratuzilmasi mintaqaviy rivojlanish uchun juda muhim va u iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi muhim omil hisoblanadi. Transport - tashrif buyuruvchilarning faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi asosiy omil; biroq, mintaqaning transport tizimi shahar aholisining ham, mehmonlarning ham ehtiyojlarini qondirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda, chunki transport tizimidan foydalanuvchi tashrif buyuruvchilar va aholi sonining ko'payishi mamlakatning turistik imidjiga ta'sir qiladigan ko'proq tirbandlik va baxtsiz hodisalarni keltirib chiqishiga sabab bo'ladi. Jamoat transporti yaxshi bo'lgan shaharlarda kam sonli sayyohlari shaxsiy transportni ijaraga olishlari kam kuzatiladi. Transport tizimining samarali ishlashi har bir hududni rivojlantirishning zaruriy shartidir. Transport ko'plab muhim funktsiyalarni bajarishga imkon beradi va aholining hayot sifatiga ta'sir qiladi. Bu, birinchi navbatda, ularning harakatchanligining yuqori darajasini, shuningdek, mehnat, ta'lim, madaniyat va dam olish bilan bog'liq ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, turistik qulaylikka ta'sir ko'rsatish orqali mintaqada turizmni rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Turistik transportni ta'minlash bilan bog'liq qaror qabul qiluvchilar tomonidan talab qilinadigan ma'lumot turlari kelajakdagi ehtiyojni prognozlashda va transport provayderlari raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Odatda bu kabi ma'lumotlar marketing tadqiqotlari orqali to'planadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- sayohatni amalga oshiruvchilarning demografik va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari (yoshi, jinsi, oilaviy holati, ijtimoiy toifasi, daromadlari va xarajatlari);
- sayohatga talabning mintaqa geografik holatidan kelib chiqishi va taqsimlanishi;
- sayohat davomida qulay bo'lgan transportni tanlash;
- transportga bo'lgan talabning kelajakdagi shakllari (turistik sayohatning qisqa va uzoq muddatli prognozlari);
- turistik transport operatsiyalariga nisbatan davlat siyosati;
- turistik transport turlariga investitsiyalarni va infratuzilmani ta'minlash uchun talabning o'zaro ta'siri.



Turizmining rivojlanish tarixi 1843 yilda bir guruh sayyohlarni temir yo'l orqali tashish bilan boshlangan. Bugungi kunda suv orqali, quruqlik va havo transportini bir-biriga bog'lab turuvchi jahon intermodal transport tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Avtomobil ijarasi bugungi kunda ommalashib bormoqda. Avtomobil ijarasi internet orqali amalga oshiriladi va smart-karta avtomobilni ochish uchun kalit sifatida foydalaniladi. 2010-yildan beri tizim rivojlanmoqda va u hozirda avtomobil almashish imkoniyati ham mavjud bo'lib, bunda mashinalar belgilangan stantsiyalarda turishi shart emas, chunki IT tizimi mavjud transport vositalarini GPI orqali aniqlaydi, joylashuv ma'lumotlarini mobil ma'lumotlar orqali uzatadi, ma'lumotlarni onlayn xaritada ko'rsatadi. Foydalanuvchilar o'z smartfonlarida o'rnatilgan geolokatsiya dasturidan foydalanib, o'zlariga eng yaqin transport vositasidan foydalanishlari mumkin bo'ladi. Yana bir yechim - bu avtomobilni bir vaqtning o'zida bir nechta odamlarning sayohati davomida birgalikda ishlatishiga asoslangan avtomashinalarni tashish tizimi.

Polshada bu tizim ish uchun muntazam yoki davriy sayohat qilish shakli sifatida ko'p foydalaniladi. Dastlab, bu tizim faqat shaharlarda mavjud bo'lib, ish joyiga borish uchun ishlatilgan bo'lib, vaqt o'tishi bilan bu tizim qishloq joylarda keksalar tomonidan foydalanila boshladi. Hozirda bu xizmat shaharda ham, qishloqda ham foydalaniladi va barcha yo'lovchilarning xohishiga moslashtirilgan.

Tizim sayohat kuni va vaqtini, shuningdek, jo'nash joyi va boradigan joyini ko'rsatgan holda, elektron yoki telefon orqali sayohatga buyurtma olgan operatori o'z ichiga oladi.

Avtomobil almashish bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bunday xizmatlar muqobil barqaror transport xizmatlari sifatida xizmat qilishi mumkin bo'ladi.

So'nggi paytlarda elektr avtomobillar xizmatini joriy etilishi avtomobil chiqindi gazlarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini sezilarli darajada kamaytiradigan muhim omil bo'ldi. Avtomobil dunyosida xavfsiz va haydovchisiz harakatlanish uchun sensorlar, kameralar, radar va sun'iy intellektdan foydalanadigan o'zini-o'zi boshqaradigan transport vositalarini yaratishni maqsad qilgan edi va bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirilmogda.

Bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'zini-o'zi boshqaradigan transport vositalari harakatlanish vaqtida yo'lda oqim quvvatini sezilarli darajada ko'paytiradi, sayohatchilar xavfsizligini sezilarli darajada oshiradi.

Avtonom va ulangan avtomobilga tegishli texnologik innovatsiyalar nafaqat transport vositalariga, balki ular o'rtasidagi aloqa va infratuzilmalarga ham ta'sir qiladi.

"Smart yo'llar" orqali harakatlanuvchi transport vositalari bilan ulanish va aloqa o'rnatishga ruxsat beriladi. Bu yo'llar ma'lumotlarni avtomatik aniqlash uchun bir qator texnologiyalarga ega:

- yo'lakdagi kameralar, radar va sensorlar,
- V2V ning tezkor va ikki tomonlama aloqa texnologiyalari (transport vositasidan infratuzilmaga) va V2X (transport vositasidan infratuzilma va transport vositalariga) turi.

Haydovchisiz tizim Parij, Gonkong, Milan, Rim metrolarida ham keng qo'llanilyapti.

Integral avtomatlashtirish tizimi transport vositasini boshqarishda haydovchi talab qilmaydi, chunki u ishga tushirish, to'xtatish, tezlikni tartibga solish, platforma eshiklarini ochish va yopish jarayonini boshqarish, to'siqlar va favqulodda vaziyatlarni aniqlash imkoniyatiga ega.¹

Metroni haydovchisiz boshqarishning turli foydali tomonlari mavjud:

- ✓ **moslashuvchanlik:** ular kun davomida xizmatni bir maromda yoki jadal o'zgartirishi mumkin,

¹ Dileep.M.R., Francesca Pagliara transportation system for tourism/advances in spatial science 2023. – P.9.



- ✓ **xavfsizlik:** inson qilishi mumkin bo‘lgan xatoning ehtimoligi nolga teng,
- ✓ **energiyani tejash:** to‘liq avtomatlashtirish tufayli ular yanada samarali ishlash imkoniyatiga ega.

Bugungi kunda shahar atrofida yuk va yo‘lovchi tashish uchun o‘zi harakatlanuvchi poyezdlar sinovdan o‘tkazilmoqda. Ayrim texnologiyalar sun‘iy yo‘ldosh tizimlaridan foydalanadi va sun‘iy yo‘ldosh texnologiyalarini temir yo‘l harakatini boshqarishning Yevropa tizimi platformasi bilan integratsiyalashga intiladi.

Misol uchun, 2018 yilda Hitachi Rail Avstraliyadagi birinchi avtonom temir yo‘l transporti tizimini tog‘-kon operatori Rio Tintoning yuk tashishlarini avtomatlashtirish maqsadida sinovdan o‘tkazdi. U sun‘iy yo‘ldosh tipidagi aloqa tizimlari bilan jihozlangan.

Jamoat transporti kontekstida avtonom harakatchanlik bilan bajariladigan xizmatlarning 130ga yaqin misollari mavjud. Ular haydovchisiz elektrobuslardan foydalanadilar, ular belgilangan marshrutlarni maksimal xavfsiz tarzda o‘tishga qodir.

Ushbu avtobuslar maksimal 25 km/soat tezlikda 15 kishini tashishi mumkin va asosan avtobus, tramvay va metro bekatlarini ulash maqsadida harakatlanish cheklangan joylarda qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika Agentligi.
2. Transport Logistikasi, Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma, Bozorov, I.N., Omonov, A. A., Daliyev, Sh.K., SamDU nashri, Samarqand 2021
O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti 2000-2005
3. Logistika, O‘quv qo‘llanma, Dadaboyev Q.A., T.: TDIU 2007
4. Turizmda Transport Xizmatlari, O‘quv qo‘llanma, Norchaev A.N., Umirova D.S., T.: “Iqtisodiyot” 2020
5. Axmatova M.E. Turizm va transport xizmatlarining bir biri bilan uzviy bog‘liqligi// Iqtisodiyot va turizm xalqaro ilmiy va innovasion jurnal. 2021,86-91b.
6. Akhmatova M.E. International connection of tourism and transport services// “LOGISTICS AND ECONOMY” scientific-electronic journal. 2022, 20-24b.
7. Axmatova M.E. Turizm va transport xizmatlarining bir biri bilan uzviy bog‘liqligi// Iqtisodiyot va turizm xalqaro ilmiy va innovasion jurnal № 2(2)2021, ISSN 2181-2551. B.86-91.
8. Akhmatova M.E., Hamroyev H.R. The role of innovative technologies in improving the quality of transport services// World Bulletin of Management and Law (WBML), Volume-3, October-2021. ISSN 2749-3601. Page. 4-8. (Journal Impact Factor: 7.424
9. Axmatova M.E. Turistik transport xizmatlarini takomillashtirish strategiyasini aniqlash // “Turistik hududlarning zamonaviy kontenti: muammolar va innovatsion yechimlar” mavzusida xalqaro ilmiy-anjumani. Buxoro 2023 yil, 16-iyun. B 198-200.
10. Axmatova M.E. Buxoro viloyatidagi diqqatga sazovor joylarga transport xizmatlari va harakatchanligi tahlili// “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘rinish sur‘atlarini ta‘minlash: muammolari va yechimlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Buxoro 2023 yil, 5-may. B 102-104.

Axmatova M.E. Turizmda transport xizmatlarini optimallashtirish chora tadbirlari//“Sanoat va xizmat ko‘rsatish sohaslarining raqamli transformatsiyasi: tendensiyalar, boshqaruv strategiyalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. Buxoro 2022 yil, 2-3 mart. B 244-248